

Date: 27th October-2025

**O‘ZBEK SHEVA VA DIALEKTLARIDAGI SOF LEKSIK DIALEKTIZMLAR VA
ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

Bobosherova Madina Tolibjon qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘zbek tili sheva va dialektlarida uchraydigan sof leksik dialektizmlar tahlil qilinadi. Sof leksik dialektizmlar — adabiy tilda qo‘llanmaydigan, faqat shevalarga xos bo‘lgan so‘zlar bo‘lib, ular xalqning hayoti, madaniyati, kasb-hunariga oid qadimiy leksik qatlamni o‘zida mujassam etadi. Tadqiqotda bunday birliklarning leksik-semantik xususiyatlari, hududiy farqlari hamda ularning folklor asarlarda qo‘llanishi yoritiladi. Olingan natijalar sof leksik dialektizmlar asosan ot so‘z turkumida uchrashini, ularning adabiy tilga sinonimik munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sheva, dialekt, leksik dialektizm, sof leksik dialektizm, adabiy til, folklor, o‘zbek tili, dialektologiya.

O‘zbek tili sheva va dialektlari xalq nutqining eng qadimiy va tabiiy qatlamini tashkil etadi. Ular o‘zida xalqning tarixiy hayoti, madaniyati va turmush tarzini aks ettiradi. Shevalarda adabiy tilda uchramaydigan, faqat ma’lum hudud vakillari nutqida ishlatiladigan so‘zlar — sof leksik dialektizmlar mavjud. Bunday leksik birliklar o‘zbek tili lug‘at boyligini boyituvchi muhim manba hisoblanadi. Shu bois sof leksik dialektizmlarni ilmiy o‘rganish, ularning semantik, fonetik va grammatik xususiyatlarini aniqlash o‘zbek dialektologiyasi uchun dolzarb masalalardan biridir.

Sof leksik dialektizmlar — adabiy tilda qo‘llanmaydigan, faqat shevalarda mavjud bo‘lgan so‘zlardir. Ular adabiy til uchun begona, ammo xalq og‘zaki nutqida faol qo‘llanadigan birliklardir. Masalan:

Markädi (Ber.) – anjir oshqovoq.

Murtmay (Mang‘.) – mo‘ylov yog‘i.

Qaytiš-kürtik (Mang‘.) – kulchatoy, shilpildoq.

Bärbär (Mang‘.) – juda tez ishlaydigan suvoqchi.

Bakovul ~ bākāvül shv. To‘ylarda taom tayyorlovchi oshpaz, pazzanda.

Bebilchak ~ bebilčäk shv. Oyoq yuzining do‘ng joyi.

Gazat ~ gāzät shv. Ikki o‘rkachli tuya.

Garazon ~ gārāzān shv. Juda kir, iflos.

Gashir ~ gāšir shv. Sabzi.

Gashti ~ gati shv. rvsh. oxirgi, oxirida.

Gula ~ gülä shv. Nusxa, ornak, andaza.

Guppi ~ güppi shv. Qalin paxtali chopon, tun.

Guppi ~ güppi shv. Xovliqma, shoshma-shoshar.

Dav ~ dāv shv. Ulkan, katta, baquvvat.

Dal ~ däl shv. Xuddi oziga, toppa-togri.



Date: 27th October-2025

Dalon ~ dälän shv. q. dolon (Bostirmali keng dalonga otish chiqarilgan izvosh. S.Ahmad. Hukm)

Bu misollar sof leksik dialektizmlar xalqning mahalliy nutqidagi o'ziga xos ma'no tizimini ifodalashini ko'rsatadi.

Sof leksik dialektizmlar ko'plab sohalarga oid bo'lishi mumkin. Masalan: baliqchilik sohasida: marqa (Xorazm) – oqqayroq baliq; qiltanaq (Xorazm) – tovonbaliq, karasi. Oziq-ovqat sohasida: barak (Bux.) ~ bäräk (Jan. Xorazm) – chuchvara; mähava (Sam.) – moshxo'rda.

Bu so'zlar mahalliy aholining mehnat faoliyati va kundalik turmush tarzi bilan bog'liq terminologiyani ifodalaydi.

Xalq og'zaki ijodi — shevalarning eng boy saqlanuvchi maydonlaridan biridir. Ertak, qo'shiq, maqol, dostonlarda ko'plab dialektal birliklar uchraydi. Masalan, älämdjan (Qirq) – behisob, ko'p; dāptäri mergän – mohir mergan kabi birliklar xalq nutqining tabiiyligini ko'rsatadi. Bu jarayon sof leksik dialektizmlarning madaniy ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sof leksik dialektizmlar asosan ot so'z turkumida uchraydi. Ularning adabiy tildagi sinonimlari mavjud bo'lsa-da, dialektal shakllar ko'proq mahalliy nutq va emotsional bo'yoqni saqlab qoladi. Masalan: gārāzān – juda kir, iflos (adabiy tildagi iflos so'ziga sinonim sifatida).

Sof leksik dialektizmlar faqat shevalardagina qo'llanadi. Sof leksik dialektizmlar turli xil sohalarga oid: baliqchilik, oziq-ovqat kabi. Shuningdek, sof leksik dialektizmlar folklor asarlarida, o'sha asarlarda tarqalgan territoriyada sof leksik dialektizmlar uchraydi.

Sof leksik dialektizmlar o'zbek tili lug'at boyligining qadimiy va o'ziga xos qatlamini tashkil etadi. Ular xalq nutqining tarixiy taraqqiyotini, ijtimoiy hayotini va madaniyatini aks ettiradi. Dialektizmlarni tizimli o'rganish, ularni leksik va semantik jihatdan tasniflash o'zbek dialektologiyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sof leksik dialektizmlar o'zbek folklori va mahalliy madaniyatni tadqiq etishda ham bebaho manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. – 140 б.
2. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi: darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B. 230.
3. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1962. – B. 456.

